



Xorazm viloyati statistika
boshqarmasi


2022- yil yanvar oyida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **698,9 mlrd. so'mga** yetib, uning nominal hajmi **111,2 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,8 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oyida)





Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	698,9	111,8
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	40,0	120,3
Moliyaviy xizmatlar	156,7	128,2
Transport xizmatlari	151,5	109,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>144,0</i>	<i>107,1</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	11,6	96,4
Savdo xizmatlari	180,6	109,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	21,1	105,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	23,8	93,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	14,4	111,0
Ijara xizmatlari	12,4	56,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	30,4	111,1
Shaxsiy xizmatlar	23,8	108,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,1	113,8
Boshqa xizmatlar	19,5	132,9



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Savdo xizmatlari

25,8 %

Moliyaviy xizmatlar

22,4%

Transport xizmatlari

21,7 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

5,7 %

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

4,3 %

Ta'llim sohasidagi xizmatlar

3,4 %

Shaxsiy xizmatlar

3,4 %



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar oyida ularning ulushi **25,8 %** ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,9 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida savdo xizmatlarining ulushi umumiyligi hajmda **25,4 %** ni tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **1,8 %**.


2022- yil yanvar oyida yuqori o'sish boshqa xizmatlar (**32,9 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,2 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**20,3 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**13,8 %**) va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlarida (**11,1 %**) qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ijara xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (**188,9 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**157,1 %**) o'sish kuzatilgan.

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yil yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **25,8 %** ni tashkil etdi, bu esa **180,6 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ularning hajmi **149,2 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmnинг **25,4 %** ga to'g'ri kelgan.

2021- y. yanvar

Xizmatlar hajmi
149,2 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
100,1 %

Ulushi
25,4 %

Savdo xizmatlari



2022- y. yanvar

Xizmatlar hajmi
180,6 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
109,7 %

Ulushi
25,8 %

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar oyida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **25,8 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2022- yil yanvar oyida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida chakana savdo ulushi **78,8 %** ga yetgan.

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar oyida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **156,7 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ularning hajmi **121,8 mrd. so'mga** teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **22,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ularning ulushi **20,7 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **34,9 mlrd. so'mga** ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **128,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **124,1 %** ga yetgan.



2022- yil yanvar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9 %** oralig'ida qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2022- yil yanvar oyida)



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** ga to'g'ri kelgan.

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar oyida)

2021- y. yanvar

32,8
mlrd. so'm

114,4 %

5,6 %

2022- y. yanvar

40,0
mlrd. so'm

120,3 %

5,7 %




2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,3 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2021- y. yanvar



2022- y. yanvar

 Telekommunikatsiya xizmatlari Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,7 %** ga yetgan.

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**23,1
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**23,8
mlrd. so'm**

**2021- y.
yanvar**



**2022- y.
yanvar**

108,9 %

O'sish sur'atlari, % da

93,0 %

2022- yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **23,8** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **3,4 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **93,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida xizmatlar hajmi **23,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish **108,9 %** darajasida qayd etilgan.

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

10,6

2021- y.
yanvar

11,6

2022- y.
yanvar



O'sish
sur'ati, % da

108,5

96,4

2021- yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **1,0** mlrd. so'mga ortdi.

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

83,7 %

2022- y. yanvar

16,3 %

20,3 %

79,7 %

2021- y. yanvar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,7 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda ularning ulushi **79,7 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y. yanvar

2022- y. yanvar

**11,7
mlrd. so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**14,4
mlrd. so'm**

90,5 %

**O'sish
sur'ati**

111,0 %

2,0 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2,1 %




2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar oyida)



2022- yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - 38,3 % (2021- yilda 38,9 %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Tuproqqa'l'a tumanida kuzatilgan – 2,3 %.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Xorazm viloyati	698,9	119,8	109,1
Urganch shahar	267,4	111,4	118,6
Xiva shahar	28,3	102,0	137,0
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	49,2	114,4	100,0
Gurlan	34,2	114,6	95,5
Qo'shko'pir	35,6	114,5	95,3
Urganch	49,5	110,6	96,1
Hazorasp	45,6	110,7	98,6
Tuproqqa'l'a	16,2	128,6	93,4
Xonqa	46,3	106,5	102,5
Xiva	35,4	111,2	109,0
Shovot	36,1	113,7	95,7
Yangiariq	30,1	115,4	95,9
Yangibozor	25,1	119,0	99,4

** Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**366,2
ming so'm**

Hajmning o'sishi

**53,6 ming
so'mga**



110,1 %

O'sish sur'ati

2022- yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **366,2** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **110,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash

uchun:

2021- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **312,6** ming so'mni tashkil etgan.

20

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 62-224-65-16

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi